FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.10.06.Fil.10.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

OXUNOVA GO‘ZALXON XAMDAMBEK QIZI

XXI ASR BOSHLARI O‘ZBEK HIKOYALARI POETIKASI
(Isajon Sulton va Normurod Norqobilov ijodi misolida)

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 821.512.133.09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Oxunova Go‘zalxon Xamdambek qizi
XXI asr boshlari o‘zbek hikoyalari poetikasi (Isajon Sulton va Normurod Norqobilov ijodi misolida)……..…..……..3

Okhunova Guzalkhon Khamdambek kizi
The poetics of Uzbek stories of the early 21st century (on the example of the works of Isajon Sultan and Normurod Norqobilov)……...……..…..25

Охунова Гузалхон Хамдамбек қизи
Поэтика узбекских рассказов начала XXI века (на примере произведений Исаджона Султана и Нормурода Норкабилова)..……...51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ…..…….56

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2026.10.06.Fil.10.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

OXUNOVA GO‘ZALXON XAMDAMBEK QIZI

XXI ASR BOSHLARI O‘ZBEK HIKOYALARI POETIKASI
(Isajon Sulton va Normurod Norqobilov ijodi misolida)

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/Fil4982 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qosimov Abdug‘opir Abdukarimovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Nasirov Azimidin Normamatovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.10.06.Fil.10.09 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «28» noyabr soat 9:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100151, Farg‘ona shahar, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (853 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "07" noyabr da tarqatildi.

(2026-yil "07" 11 dagi 8- raqamli reestr bayonnomasi).

A.G.Sabirdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

R.M.Umurzaqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Z.A.Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida yozuvchi badiiy mahorati, badiiy asar tili va uslubdagi o‘ziga xos ko‘rinishlarni ma’lum janr asosida ochib berish, qolaversa, ijodkorning asar voqeligi va inson ruhiyati bilan uyg‘un qiyofasini badiiy aks ettirish imkoniyatlarini aniqlash muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bugungi davrda global darajada fikrlaydigan shaxs tafakkuridagi o‘zgarishlar, san’at asarining inson dunyoqarashi va tafakkuriga ta’siri masalasining aktuallashuvi, badiiy asarlarning poetik va uslubiy o‘ziga xosliklari masalasini an’anaviy va zamonaviy tamoyillar asosida tahlil qilish amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida hikoya janri poetikasini, uning nazariy va ilmiy asoslarini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. XXI asr hikoyachiligi poetik xususiyatlarining mavzular ko‘lami, obrazlar tasnifi va badiiy nutq imkoniyatlarini tadqiq etish aspektida yozuvchi badiiy mahoratini teran tahlil qilish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Chunki XXI asrda hikoya janri qator evrilishlarga uchradi. Xususan, epik qahramon ruhiyatida, badiiy nutqda, hikoya mavzu va ifoda usulida kuzatilgan izlanishlar janrning avvalgi davrdagi holatini o‘zgartirdi. Hikoyada rivoyaviy bayondan ko‘ra, novellistiklik xususiyati kuchaydi. Qahramonlar umuminsoniy muammolarni dadillik bilan aytadigan, shuning bilan birga, milliylik ruhini saqlab qolgan holda oldinga intiladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ldi. Hikoyada ramziylik, metaforaviylikka bo‘lgan intilish yanada yorqin yuzaga chiqa boshladi. Badiiy nutq masalasi ham o‘zgardi. Aynan shu jihatlarni hozirgi adabiy jarayon kontekstida XXI asr hikoyachiligining janriy-poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda badiiy nutqdagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida istiqlol yillarida badiiy asar tahliliga yangicha nazariy qarashlar asosida yondashish masalalariga e’tibor qaratildi. Zero “hozirgi kunda milliy o‘zligimizni saqlab qolish, xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish va shu orqali mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun avvalambor adabiyot, madaniyat va san’at sohalarini qo‘llab-quvvatlashimiz zarur”[1]ligi xususidagi fikrlar milliy adabiyotshunosligimizning yangi taraqqiyotiga keng yo‘l ochdi. Natijada, tadqiqotlarning shakliy va mazmuniy salmog‘ida qator o‘zgarishlar yuzaga keldi. Badiiy ijodning muhim halqasi hisoblangan asar poetikasi tadqiqiga yangicha yondashilib, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining badiiy takomili asoslarining o‘rganilishi, yangi asr yozuvchilarining obraz yaratish mahorati, muallif konsepsiyasi, badiiy asar tuzilishi, badiiy nutq shakllarini o‘rganishda badiiy tahlilga jiddiy e’tibor qaratildi. Shu munosabat bilan XXI asr o‘zbek hikoyachiligining poetik taraqqiyot tendensiyalari, yozuvchilarning badiiy obraz yaratish mahorati, nutq va uslub masalalari badiiylikning bosh mezoni sifatida tadqiq etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyalari to‘g‘risida”gi

[1] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – Б.269.

farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida hikoya janri, uning nazariy asoslari, yozuvchi mahorati masalalarini tadqiq etishda M.Baxtin, V.Belinskiy, M.Xrapchenko, E.Xalizev, A.Veselovskiy, M.Grishman, V.Vinogradov, B.Shklovskiy, A.Potebnya, G.Pospelov, F.Shelling, Y.Dobin, Y.Borev, N.Tamarchenko, A.Yesin, Sh.Sag‘lik, O‘.Lekesiz, N.Tonga, M.Albayrak, O.Kuzmina, A.Harmanji, I.Guluzar, A.Bulent kabi olimlar tadqiqotlari[2] muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, A.Alimuhammedov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, N.Rahimjonov, A.Rasulov, B.Nazarov, Y.Solijonov, B.Karimov, U.Hamdamov, H.Boltaboyev, A.Rahimov, D.Quronov, S.Umirov, U.Jo‘raqulov, I.Rustamova, Ch.Niyatov, Q.Yo‘ldoshev, X.Do‘stmuhammedov, Sh.Doniyorova, G.Sattorova, G.Imomova, Q.Yo‘lchiyev, S.Komilova, Sh.Odilov, M.Qo‘chqorova, P.Kenjayeva, S.Matyaqubov, Sh.Sopiyeva, O.Abobakirova, M.Jo‘rayeva, A.Qayumov, K.Hamroyev, B.Xasanova, K.Egamberdiyeva, B.Shukurova va M.Ulkanboyeva singari soha mutaxassislarining darslik, monografiya va

[2] Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Белинский В. Собрание сочинений. Т.3. – М.: Художественная литература, 1978; Потебня А. Эстетика и поэтика. – М.: Исскуство, 1976; Потебня А. Теорическая поэтика. Из записок по теории словесности. – М.: Высшая школа, 1990; Храпченко М. Горизонты художественного образа. – М.: Художественная литература, 1986; Хализев Е. Теория литературы. – М.: Высшая школы, 1999; Веселовский А. Историческая поэтика, – М.: Высшая школа, 1989; Гришман М. Ритм художественной прозы. – М.: Сов писатель, 1982; Виноградов В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школы, 1971; Поспелов Г. Введение в литературоведение. – М.: Высшая школы, 1983; Добин Е. Жизненный материал и художественный сюжет. – М.: Сов.писатель,1958; Тамарченко Н. Теория литературы // Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003; Есин А. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта-Наука, 2002; Sağlık Ş. Hikaye/anlatı/yorum. – Ankara: Hece Yayınları, 2014; Lekesız Ö. Türk öykücülüğünün yüz yıllık hikayesi. Dergah, IX (106), 1998; Tonga N. Hikayeye terminologik bir yaklaşım. – Turkish studies, 3, (1), 2008; Albayrak M. Türk öykücülüğünde deneysellik farklı metinler vaöyküler. – Ankara: Kanguru Yayınları, 2010; Кузьмина О. Рассказы Л.Т. Аверченко (жанр, стил, поэтика): Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Тверь, 2003; Harmanjı A. Hüseyin Rahmi Gürpınar’ın öyküleri ve öykücülüğu: doktora tezi. – Konya, 2010; Gülüzar I. Murat Gülsoy’un hikayeleri ve hikayeçiliği: doktora tezi. – İstanbul, 2024; Bülent A. Steven Millhauser, Aimee Bender, Kelly Link ve Kevin Brockmeier’ın öykülerinde büyülü gerçekçilik: doktora tezi. – Ankara, 2021.

dissertatsiyalarida[3] hikoya janrining badiiy xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Xususan, ijodkorning badiiy obraz yaratish mahorati, davr va qahramon masalasi, xarakter yaratish muammolari, qahramon ruhiyatini tasvirlash usullari, badiiy nutq va uslub poetikasi kabi yozuvchi uslubining o‘ziga xos qirralarini ko‘rsatib berishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqot obyekti bo‘lgan Isajon Sulton asarlari yuzasidan ham qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan, N.Sultonova, N.Tosheva, D.Toshpo‘latova, H.Abdulhamidova, F.Kurbanova, G‘.Urazbayev, S.Habibullayeva, S.Babayeva[4]ning tadqiqot ishlarida yozuvchi asarlari turli nazariy

[3] Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005; Қўшжонов М. Сайланма. I жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982; Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Алимуҳаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида инсон образи: Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1948; Владимирова Н.В. Ўзбек ҳикояларида ғоя ва образ. – Тошкент: Фан. 1969; Владимирова Н. Развитие жанра рассказа в узбекской литературе: Дисс... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1985; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол.фан. д-ри ...дисс. автореф.– Тошкент, 1993; Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992; Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Норматов У. Насримиз уфқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Назаров Б., Раҳимжонов Н. Ўзбек совет ҳикоячилигининг жанр хусусиятлари / Адабий тур ва жанрлар. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1991; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб: услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар. – Тошкент: Фан, 1992; Каримов Б. Абдулла Кодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011; Йўлдошев Қ. Ўзбек совет сатирик ҳикоячилигида характер тасвири эволюцияси: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 1985; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004; Умиров С. Санъатнинг сеҳрли калити. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015; Ниятов Ч. Ҳозирги ўзбек прозасида характер проблемаси. – Тошкент: Фан, 1984; Дўстмуҳаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши. (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 1995; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2002; Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Имомова Г. Ўзбек ҳикояларида бадиий синтез шакллари ва ижодкорнинг поэтик концепцияси: Филол.фан.д-ри ...дисс. автореф. – Қарши, 2022; Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. Монография. – Тошкент: Маърифат битиклари, 2021; Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999; Қўчқорова М. “Ўтмишдан эртаклар” тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016; Сопиева Ш. Хайриддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати: Филол.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2006; Рустамова И. Абдулла Қаҳҳор насрий асарлари поэтикаси: Филол.фан.д-ри ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022; Абобакирова О. Ўзбек болалар ҳикоячилигида бадиий услуб ва қаҳрамон масаласи (Н.Фозилов, Л.Маҳмудов, А.Обиджон ижоди мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2021; Жўраева М. Замонавий ўзбек насрида янги инсон концепцияси (Абдуқаюм Йўлдошев ва Зулфия Қуролбой қизи ҳикоялари мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадиий маҳорат (Ўткир Ҳошимов ва Наби Жалолиддин ҳикоялари мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018; Ҳамроев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Тошкент: Nurafshon bussines, 2020; Хасанова Б. Асқад Мухторнинг ҳикоянавислик маҳорати: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Egamberdiyeva K. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida tasvir va talqin (Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. avtoref. – Guliston, 2024; Shukurova B. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzayev, E.A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. avtoref. – Buxoro, 2024; Ulkanboyeva M. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida an’anaviylik va novatorlik (Istiqlol davri yoshlar hikoyachiligi misolida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2025.

[4] Султонова Н. Исажон Султон романларида бадиий компонентлар модификацияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2020; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020; Тошпўлатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари (Улуғбек Ҳамдам ва Исажон Султон асарлари мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2022; Абдулҳамидова Ҳ. Исажон Султон

muammolar asosida tahlilga tortilgan bo‘lib, asosan poetik xususiyatlarini o‘rganish borasida yuqoridagi izlanishlarni samarali tadqiqotlar sifatida qayd etish mumkin.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yozuvchi Normurod Norqobilov ijodi ham Sh.Ashurova, S.Bazarov, X.Fayzullayev, B.Ashurov, B.To‘rayeva[5] kabi qator adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularda muallif ijodi turli nazariy muammolar asosida tadqiq etilgan. Lekin har ikki yozuvchining XXI asr birinchi choragida yaratilgan hikoyalariga doir poetik xususiyatlar adabiyotshunosligimizda yetarlicha tadqiq qilinmaganligi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi. Bundan tashqari, Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalari bir tadqiqot doirasida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Poetika va badiiy nutq muammolari” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XXI asr o‘zbek hikoyalari poetikasiga xos xususiyatlarni Isajon Sulton va Normurod Norqobilov asarlaridagi obraz, nutq shakllari hamda uslubiy o‘ziga xosliklar asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotshunosligida hikoya janri tadqiqiga doir nazariy qarashlarni o‘rganish va janr taraqqiyotida ro‘y berayotgan uslubiy yangilanishlarni aniqlash;

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov nasriy asarlarini o‘rganishga doir tadqiqotlarda ilgari surilgan yondashuv va tahlillarni tasniflash;

Normurod Norqobilov hikoyalarida badiiy obraz yaratish tamoyillarini aniqlash;

Isajon Sulton hikoyalarida badiiy detalning obraz yaratishdagi estetik funksiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

muallif nutqi shakllarining (bevosita va bilvosita muallif nutqi) Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalaridagi muhim poetik vosita sifatidagi vazifalarini aniqlash;

monologik nutqning qahramon ruhiyatini ifodalashdagi ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Isajon Sultonning “Hazrati Xizr izidan”, “Qoraqush yulduzining siri” va “Boqiy darbadar” kabi kitoblariga kiritilgan hikoyalari, Normurod Norqobilovning “Bo‘ron qo‘pgan kun”, “Bekatdagi oq

---

романларида хронотоп. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2022; Kurbanova F. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin. Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Qo‘qon, 2023; Urazbayev G‘. Isajon Sulton nasri poetikasi.Filol.fanl.b-cha fals.d ri. diss. avtoref. – Urganch, 2024; Habibullayeva S. Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024; Бабаева С. Исажон Султон романларида бадиий тафаккур тадрижи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Гулистон, 2024.

[5] Ашурова Ш. Инглиззабон ғарб адабиёти ва ўзбек адабиётида анималистика жанри хусусиятлари (Э.Сетон-Томпсон ва Нормурод Норқобилов ижоди мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Базаров С. Нормурод Норқобилов асарлари поэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021; Файзуллаев Х. Нормурод Норқобилов насрида инсон ва табиат муаммосининг поэтик талқини. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2021; Ashurov B. Zamonaviy o ‘zbek nasrida it obrazi poetikasi (Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida). Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Namangan, 2024; To‘rayeva B. Inson va jonzot mikroxronotopida parallelizm. https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/03/inson-va-jonzot-mikroxronotopida-parallelizm-1.pdf. (murojaat sanasi: 15.10.2025)

uycha”, “Tanlangan asarlar” I jild kitoblaridan o‘rin olgan hikoyalariga murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek hikoyachiligi, xususan, Isajon Sulton hamda Normurod Norqobilov hikoyalarida aks etgan badiiy obrazlar tizimi va ularning xilma-xilligi, shuningdek, badiiy nutq shakllari masalalarini qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, funksional, qiyosiy-tipologik, psixologik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hikoya janrida ro‘y berayotgan shakliy va mazmuniy yangilanishlar asosida XXI asr boshlari o‘zbek hikoyalarida qahramon “men”i, uning ruhiy olami tasviri ustuvorlik kasb etgani asoslangan;

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida badiiy obraz va badiiy detalning asar konsepsiyasini ochishdagi imkoniyatlari dalillangan;

hikoyalarda qo‘llangan badiiy nutq shakllari orasida muallif nutqining yaxlitlashtiruvchi asos ekanligi aniqlanib, uning qahramon xarakterini ochib berishdagi funksiyasi kengayganligi isbotlangan;

Normurod Norqobilov hikoyalarida bevosita muallif nutqining ustuvorligi, Isajon Sulton hikoyalarida esa obrazlarning ichki ovoz manerasi birlamchiligi, muallif, qahramon va uchinchi shaxs nutqi bir tizimga solinganligi aniqlanib, har ikki ijodkor uslubida qahramon ruhiyati ichki va tashqi monologik nutq imkoniyatlari orqali ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida ota va bola obrazlari muallif ijodiy niyatini o‘quvchiga yetkazishda badiiy vosita ekanligi tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi ruhiy kechinmalar, mehr-muhabbat, ziddiyat, murosa kabi holatlar aniqlanib, natijalar oila tarbiyasi va shaxslararo munosabatlarni yanada chuqurroq anglashga yordam berishi asoslangan.

O‘zbek nasrida bolalar va o‘smir qahramonlarning individual xarakter evolyutsiyasining yoritilishi bugungi ijtimoiy hayot bilan bevosita bog‘liqligi asoslanib, yuzaga keladigan ma’naviy-axloqiy, ruhiy va ijtimoiy muammolarning badiiy asarlarda aks etishi jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan uzviy aloqadorligi aniqlangan.

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida muallif nutqining kengaygan funksional doirasi yoritilib, uning syujet va kompozitsion butunlikni ta’minlash, makon va zamonni shakllantirish, qahramonlar xatti-harakati, fikr-mulohazalarini tahlil etish hamda milliy til imkoniyatlarini boyitishdagi vazifalari belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, qo‘llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy xulosalarning adabiyot nazariyasi, hozirgi adabiy jarayon bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida

o‘qitiladigan adabiyotshunoslikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishga, hikoya janri tadqiqiga doir izlanishlar doirasini kengaytirishga, hamda badiiy nutq poetikasiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan adabiyotshunoslik lug‘atlaridagi mavjud sharh, izohlarga qo‘shimchalar kiritish va takomillashtirish, o‘quv qo‘llanmalar yaratish; filologiya yo‘nalishlarida ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XXI asr boshlari o‘zbek hikoyalari poetikasi, Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida badiiy nutq va uslub imkoniyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida olingan ilmiy natijalar asosida:

hikoya janrida ro‘y berayotgan shakliy va mazmuniy yangilanishlar asosida XXI asr boshlari o‘zbek hikoyalarida qahramon “men”i, uning ruhiy olami tasviri ustuvorlik kasb etgani asoslangani haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2024-2025-yillarda o‘tkazilgan “Vatan manzumasi” adabiy-ma’rifiy dasturi va “Ma’rifat ulashib” ijodiy loyihasi doirasidagi adabiy-ma’rifiy tadbirlarda, uyushma qoshida tashkil etilgan “Adabiy tanqid kengashi” yig‘ilishlarida keng foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2026-yil 26-yanvardagi 127-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy natijalar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatida zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyot tendensiyalarini tahlil etish, yosh ijodkorlar bilan ishlash hamda adabiy jarayonni baholashda ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida badiiy obraz va badiiy detalning asar konsepsiyasini ochishdagi imkoniyatlari dalillangan xulosa va ilmiy natijalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474, “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” nomli davlat granti loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 30-yanvardagi 04/1-516 son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot o‘zbek tilida yaratilgan milliy adabiyotlarimizda badiiy detalning obraz yaratish vositasi sifatidagi qahramon xarakteri va uning ichki dunyosini ochish, ijtimoiy hayot tasvirini berish kabi badiiy-estetik vazifalariga oid nazariy qoidalar bilan adabiyotshunoslikning rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan;

hikoyalarda qo‘llangan badiiy nutq shakllari orasida muallif nutqining yaxlitlashtiruvchi asos ekanligi aniqlanib, uning qahramon xarakterini ochib berishdagi funksiyasi kengayganligi, Normurod Norqobilov hikoyalarida bevosita muallif nutqining ustuvorligi, Isajon Sulton hikoyalarida esa obrazlarning ichki ovoz manerasi birlamchiligi, muallif, qahramon va uchinchi shaxs nutqi bir tizimga solinganligi, har ikki ijodkor uslubida qahramon ruhiyatini ichki va tashqi monologik nutq imkoniyatlari orqali ochib berish ustuvorligi dalillangan ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023 yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 30-yanvardagi

04/1-517 son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platformaning ilmiy potensiali boyigan, asr boshida zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining yetuk namoyondalari nasridagi nutq poetikasiga doir izlanishlar platformaning zamonaviy ilmiy jarayonga moslashish borasidagi imidji oshishida muhim rol o‘ynagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, respublika miqyosida 5 ta, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 12 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 143 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkur va uslubiy yangilanishlar”** deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli **“XXI asr o‘zbek hikoyachiligining nazariy asoslari va poetik taraqqiyot tendensiyalari”** masalasiga bag‘ishlangan. Mazkur faslda hikoyaning janriy xususiyatlari, badiiy takomil taraqqiyoti, yangi asrning dastlabki choragida ro‘y bergan uslubiy yangilanishlar borasidagi izlanishlar tadqiq etilgan.

Ma’lumki, hikoya janri adabiyotshunoslikda badiiy tafakkur va poetik yangilanishlarni o‘rganish uchun muhim vosita hisoblanadi. Chunki u voqelikning turli qirralarini, eng muhim tomonlarini tez, hozirjavoblik bilan dramatik holatlarda, teran psixologizm asosida yoritishni taqozo qiladi. Zotan, “har bir milliy adabiyotning o‘ziga xos kundalik nafasi, qadam olishi, mavqei hikoyada ko‘proq namoyon bo‘ladi”[6]. Shu nuqtai nazardan, XXI asr o‘zbek hikoyachiligi poetikasini o‘rganish masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mavzular rang-barangligi, adabiy aholi toifasining yangiligi, xarakterlar xilma-xilligi, badiiylik mezonlari va muammo yechimidagi o‘ziga xoslik masalalarini o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotining asosiy xususiyatlari sifatida baholash mumkin.

[6] Дўстмуҳаммад Х. Ҳаёт ва хаёл ҳақиқатлари. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslikda-hayot-va-xayol-haqi/ (murojaat sanasi: 27.09.2023).

Bugungi adabiy jarayonda hikoya janri shakl va mazmun jihatdan sezilarli yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. An’anaviy voqeabandlikka tayangan syujet qurilishidan ko‘ra insonning ichki olami, ruhiy holati, falsafiy qarashlari va o‘ziga xos tafakkur doirasini badiiy talqin qilish ustuvor tendensiyaga aylanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda, turli milliy adabiyotlardagi tarixiy taraqqiyot tajribasi bo‘lgan hikoyani xalq og‘zaki ijodi va yozma an’ana sintezi mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. Mazkur xususiyat hikoya janrining bosib o‘tgan qadimiy yo‘lini ko‘rsatish bilan birga yozuvchining badiiy mahoratini eng aniq namoyon etuvchi mustaqil va yetuk janr ekanligini isbotlaydi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat o‘zbek, balki ingliz, rus, turk, fors hikoyachiligi ham avvaliga mif va diniy motivlar ta’siridagi folklor, keyinroq esa yozma adabiyot janri sifatida shakllangan. Keyinchalik jahon nasri an’analarini o‘zlashtirish, adabiy ta’sir natijasida hikoyachilik poetik tamoyillar bilan boyib, rivojlanib borgan.

XXI asr hikoyachiligining rivoji haqida so‘z ketganda, nasrdagi an’anaviylik va modernistik izlanishlar o‘rtasidagi munozarali masalalarga oydinlik kiritish lozim. Ma’lumki, bu davr nasrida an’anaviylikka sodiq qolgan holda realizm yo‘nalishida yozilganlari ham, falsafiy-ramziy tafakkur mahsuli o‘laroq simvolistik tafakkur mahsuli sifatida taqdim etilganlari ham, modernizm, postmodernizm, neorealizmga asoslanib yaratilganlari ham mavjud. Ro‘y berayotgan badiiy ifoda shakllarining yangilanishini janr takomilidagi asosiy xususiyatlardan biri deb baholash mumkin. Bizningcha, bu davr hikoyalarini shartli ravishda an’anaviy-realistik hikoyalar va noan’anaviy uslubda yaratilgan falsafiy-ramziy hikoyalar kabi turlarga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, bir davrda turli yo‘nalishda ijod qilayotgan ikki yozuvchi – Isajon Sulton va Normurod Norqobilov nasri misolida bugungi o‘zbek hikoyachiligining shakl va mazmun jihatdan rang-barangligi, badiiy ifoda vositalarining yangilanish jarayoni va hikoyachilikning poetik manzarasi yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Isajon Sulton o‘zbek hikoyachiligini noan’anaviy shakliy-tasviriy uslubdagi ramziy ishoralar asosiga qurilgan, qadriyatlarimizni g‘arbona shartlilik bilan uyg‘unlashtirgan hikoyalari bilan yangi bosqichga olib chiqqan bo‘lsa, Normurod Norqobilov insonning olijanob fazilatlarini umumbashariy qadriyatlar negizida an’anaviy realistik uslubda yaratilgan asarlari bilan boyitayotgani diqqatga sazovor.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam ta’kidlaganidek: “Bugun adabiyot olamida sintezlashish, janrlar chegarasini oshib o‘tish, turli xil eksperimentlar qilish jarayoni shiddat bilan davom etmoqda. Binobarin yangilanishga bo‘lgan ehtiyoj va ishtiyoq badiiy, estetik, falsafiy, ilmiy dunyoqarashimizning barcha jabhalarini qamrab oldi”[7]. Hikoya janri ham qat’iy janr me’yorlaridan og‘gan holda badiiy tafakkurning ichki evolyutsiyasi orqali rivojlanayotgani kuzatiladi. Realistik tasvir bilan ramziy-majoziy talqin uyg‘unlashib, an’ana va novatorlik unsurlari qorishiq holda namoyon bo‘layotgani zamonaviy hikoyachilikni alohida yozuvchilar ijodi misolida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

[7] Ҳамдам У. Истиқлол даври ўзбек адабиётига бир назар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. – №4. – Б. 36.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy nasrimiz, xususan yangi davr hikoyachiligi tajribasiga asoslangan tadqiqotlar va mavjud xulosalarga tayangan holda, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida badiiy takomil quyidagi asosiy tamoyillar orqali amalga oshayotganini aniqladik:

– Hikoya syujetini voqeliklar emas, badiiy tafakkur vositasi hisoblangan ramz, majoz va timsollar tizimi tashkil qilmoqda;

– Noan’anaviy syujet, obraz va uslub, shuningdek, yangilanayotgan til o‘ziga xos badiiy ifoda sifatida namoyon bo‘lmoqda;

– Polifonik tasvir usullari badiiy tafakkurning yangi shakli sifatida hikoyachilikda alohida tendensiyaga aylangan;

– Dunyoni metaforik idrok etish imkoniyatini yaratish maqsadida assotsiativ fikrlash keng qo‘llanilmoqda;

– Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida an’anaviy realistik tasvir yo‘nalishi bilan birga, ramziy, majoziy, mistik, modernistik va postmodernistik yondashuvlar sintez tarzida birlashib, badiiy kenglik yaratmoqda.

Bobning ikkinchi fasli **“O‘zbek adabiyotshunosligida Isajon Sulton va Normurod Norqobilov asarlarining tadqiqi: yondashuv va tahlillar”** deb nomlanib, mazkur faslda tanlangan yozuvchilar asarlarining o‘rganilishiga e’tibor qaratilgan. Isajon Sulton ijodi tadqiqi bo‘yicha turli xil tahlil va tamoyillarga asoslangan holda bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N.Sultonova, D.Toshpo‘latova, H.Abdulhamidova, I.Saymuratova, S.Babayeva, N.Tosheva kabi tadqiqotchilarning dissertatsiya va monografiyalari[8]ni yozuvchi asarlarini poetika masalalari asosida o‘rganish borasida samarali tadqiqot sifatida qayd etish mumkin. Isajon Sulton nasrini monografik aspektda o‘rgangan mazkur tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari asosan, adibning katta hajmli nasriy asarlariga bag‘ishlangan bo‘lib, hikoyalari nazardan chetda qolgan.

Faqatgina G‘.Urazbayevning “Isajon Sulton nasri poetikasi (hikoyalari misolida)”[9], Feruza Kurbanovaning «Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin”[10], S.Habibullayevaning “Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi”[11] kabi dissertatsion ishlarida yozuvchi hikoyalarining turli qirralari tahlilga tortilgan bo‘lib, mazkur izlanishlar adib hikoyalarini o‘rganishda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

---

[8] Султонова Н. Исажон Султон романларида бадиий компонентлар модификацияси: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2020; Тошпулатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари (Улуғбек Ҳамдам ва Исажон Султон асарлари мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2022; Абдулҳамидова Ҳ. Исажон Султон романларида хронотоп: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2022; Babayeva S. Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur tadriji: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. avtoref. - Guliston, 2024; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020; Saymuratova I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shakl va uslub (Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton romanlari misolida): Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Guliston, 2023.

[9] Urazbayev G‘. Isajon Sulton nasri poetikasi (hikoyalari misolida): Filol.fanl.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Urganch, 2024.

[10] Kurbanova F. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin: Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Qo‘qon, 2023.

[11] Habibullayeva S. Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024.

Tadqiqotlarda yozuvchining badiiy tafakkuri, poetik olami, individual uslub xususiyatlari folklorizm, mifopoetika, lingvopoetika nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning hikoyalarini yangi tamoyillar asosida tahlilga tortish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Normurod Norqobilov ijodini monografik aspektda o‘rgangan S.Bazarov, X.Fayzullayev, B.Ashurov, Sh.Ashurova[12] kabi adabiyotshunoslar yozuvchi asarlarini til va uslub (stilistik tahlil), obrazlar tizimi (psixologik tahlil), mavzular va g‘oyalar (tematik tahlil), folklor va an’analar kabi tahlil va yondashuvlar asosida tadqiq qilishgan.

Xususan, S.Bazarov “Normurod Norqobilov asarlari poetikasi” mavzusidagi tadqiqotida adib ijodini monografik aspektda o‘rganar ekan, yozuvchi asarlari poetikasi, xususan, badiiy obrazlar olami, ularning tabiati, xarakter va ruhiyat birligi, adabiy makon va zamon, badiiy uslublarini tadqiq etish orqali adibning poetik mahoratini ochib beradi. Qolaversa, yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlarini boshqa ijodkorlarning asarlari bilan qiyosiy o‘rganadi. Shuningdek, yozuvchining “Quyoshi botmaydigan yurt”, “Dashtda”, “Tungi mehmon”, “Yetim qolgan gullar”, “Kurash” kabi hikoyalari misolida o‘zbek nasri badiiy tafakkuridagi yangilanishlar, Berdiboy, Suvonqul, Anvar, Xolida momo singari milliy obrazlar olami va xarakteri talqini yoritib beriladi. S.Bazarovning mazkur tadqiqot ishi Normurod Norqobilov badiiy asarlarini o‘rganish orqali o‘zbek nasri, xususan, milliy hikoyachiligimizdagi yangilanishlar, zamonaviy o‘zbek nasrining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Biroq ushbu tadqiqot ishida, asosan, yozuvchining yirik hajmli asarlariga: qissa va romanlariga keng o‘rin berilganini ta’kidlash lozim. Tadqiqotda adib hikoyalariga qisman murojaat qilinish bilan kifoyalanadi. Bu jihat yuzdan ortiq hikoyalar muallifi bo‘lgan, “tajribali, estetik prinsipi shakllangan yozuvchi”[13] Normurod Norqobilovni hikoyanavis sifatidagi mahoratini o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Uning nafaqat qissa va romanlarida, balki hikoyalarida ham jamodot, nabotot, hayvonot olami birlik va bog‘liqlikda uyg‘un tarzda tasvirlangani adibning individual uslubidan darak beradi. Adabiyotshunos olim Y.Solijonovning ta’kidicha, “Normurod Norqobilov tabiatni ilmiy tomondan yaxshi o‘rgangan. U asarlarida daraxtlar, qirlar, adirlar, hayvonlar obrazini mehr bilan tasvirlaydi, har birining zoologik, biologik, fiziologik, geografik xususiyatlarini yaxshi o‘rganganligini isbotlay oladi”[14]. Abdug‘afur Rasulov ham “Jamodot sinoati” nomli maqolasida jamodot, nabotot va jonzotni badiiy adabiyotda uch tug‘ishgan qarindoshlar deb talqin qiladi. “Normurod Norqobilov asarlarida tog‘ va tog‘oldi tabiati, odamlari aks ettirilgan. ...Yozuvchining polvonlari asrlik toshlarga, mangu qoyalarga o‘xshaydi. Ular chayir, pishiq, bahaybat, ayni vaqtda ko‘ngli nozik,

[12] Файзуллаев Х. Нормурод Норқобилов насрида инсон ва табиат муаммосининг поэтик талқини: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2021; Ашурова Ш. Инглиззабон ғарб адабиёти ва ўзбек адабиётида анималистика жанри хусусиятлари (Э.Сетон-Томпсон ва Нормурод Норқобилов ижоди мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Ashurov B. Zamonaviy o‘zbek nasrida it obrazi poetikasi (Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida): Filol.fan.b.fals.dok. …diss. avtoref. – Namangan, 2024; Базаров С. Нормурод Норқобилов асарлари поэтикаси : Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021.

[13] Расулов А. Шайдолик /Бўрон қопган кун. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.6.

[14] Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Adib, 2013. – Б.67.

g‘ururi baland, millat, elat, qavm sha’ni uchun jon berib, jon olishga tayyor kishilar”[15]. Adabiyotshunoslar mazkur fikrlarni garchi yozuvchining roman va qissalari xususidagi maqolalarida keltirgan bo‘lsalar-da, mazkur yondashuvlar adib hikoyalari tahlilida ham qo‘l keladi. Normurod Norqobilovning “Enatosh”, “Yetim qolgan gullar”, “Buloq”, “Quduq”, “Quyosh tutilgan kun”, “Keksa tut”, “Qishloq chetidagi yolg‘iz it” singari o‘nlab hikoyalarini inson va jamodot, odam va nabotot, inson va hayvonot kabi teran va mangu masalalar nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin.

Xullas, Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarining adabiyotshunoslikdagi tadqiqi tematik, uslubiy tahlil, intertekstualizm, shaxs va ijodkor, badiiy struktura kabi tahlil va yondashuvlar doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, ular XXI asr nasri manzarasini chizishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Badiiylik kategoriyasining obraz va detal orqali ifodalanishi”** deb nomlanib, uning birinchi faslida **“Hikoyada badiiy obraz yaratish mahorati”** masalasi tahlil qilingan.

Normurod Norqobilov ijodining o‘ziga xosligi shundaki, uning hikoyalarida badiiy obraz faqat inson qiyofasini aks ettirish bilan chegaralanmaydi. Adib hikoyalarida bo‘ri, it kabi jonivorlar ham, gul, daraxt kabi nabotot unsurlari ham, bo‘ron, quyosh, buloq, tog‘ singari jamodot olami ham obraz darajasiga ko‘tarilib, oddiy tasvir obyektidan inson ruhiyati va hayotning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi badiiy vositaga aylanadi. Shunga ko‘ra Normurod Norqobilov hikoyalaridagi obrazlar silsilasini to‘rt guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Insonlar obrazlari
2. Hayvonot olami orqali hayot haqiqati aks ettirilgan obrazlar
3. Nabotot olami bilan bog‘liq obrazlar
4. Jamodot olamiga mansub obrazlar.

Ushbu guruhlarni ham o‘z ichida turli kichik guruhlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin (masalan, bola, ota, chol, ayol, ijodkor obrazi kabi). Adib ijodida bola, ota, bobo, chol obrazi ishtirok etgan o‘nlab hikoyalarni uchratish mumkin. Ular orqali inson shaxsining shakllanish bosqichlari, vaqt va odam munosabati, oilaviy muhit va ijtimoiy stereotiplar falsafiy-badiiy talqin etiladi. Tadqiqotchi A.Xayrullayev esa Normurod Norqobilov ijodidagi obrazlar ko‘lamini “inson va uning nigohi markazda turgan hikoyalar, hayvonot nigohi markazda turgan hikoyalar hamda gul, buloq, keksa tut, boboterak obrazlari”[16] kabi uch guruhga ajratgan holda tahlil qilib, birinchi guruhga bola va o‘smir yigitchalar, chollar, ijodkorlar va ayollar obrazlarini kiritgan bo‘lsa, ikkinchi guruhga it bo‘ri, dala sichqoni yumronqoziq kabi obrazlar asos qilib olingan. A.Xayrullayev “Buloq” hikoyasidagi buloqni ham nabotot olamiga mansub obrazlar qatorida sanab o‘tadi. Aslida esa buloq biologik hodisa emas, balki jamodot unsuri hisoblanadi. Tabiat unsurlarining obrazlashuvi mustaqil badiiy qatlamni tashkil etgani bois biz tadqiqotimizda tog‘, quyosh, buloq, qoya kabi

[15] Расулов А. Jamodot sinoati // Tafakkur. – Тошкент, 2001. - №1. – Б.95.

[16] Xayrullayev A. Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o‘ziga xosligi // O‘zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2023. - №3 (2). – Б.16.

obrazlarni jamodot olamiga mansub obrazlar sifatida alohida guruh ko‘rinishida tasnifladik.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Normurod Norqobilov ijodida, ayniqsa hikoyalarida bola obrazi yetakchi obrazlardan sanalib, u muallif ijodiy niyatini, g‘oyasini o‘quvchiga yetkazish uchun badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib tadqiqotda, asosan, adib hikoyalarida bola obrazini yaratish usullari va bu jarayonda namoyon bo‘ladigan individual uslub xususiyatlariga e’tibor qaratildi. “Sut sotuvchi bola”, “Chol va bola”, “Quyoshi botmaydigan yurt”, “Kapalak” kabi hikoyalarda bola obrazi bosh qahramon darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ularda bolalarning beg‘ubor olami, dunyoni anglash yo‘lidagi o‘y-xayollari, erta yelkasiga tushgan ro‘zg‘or tashvishlari, ko‘nglini sindirgan yetimlik dardi kabi ichkin his-tuyg‘ular emotsional tasvirlar bilan ifoda etiladi. Xususan, yozuvchining “Erkak”, “Chorraha”, “Xesh”, “Yangi ertak” kabi hikoyalarida yetimlikning ayovsiz so‘qmoqlaridan o‘tib borayotgan ko‘ngli yarim bolalar obrazi gavdalanadi. “Sut sotuvchi bola”, “Qizcha”, “Kapalak” kabi hikoyalarida esa ularning murosasiz fikrlari, ota-onasining e’tiborsizligi oqibatida yakkalanib, jamiyatdan ajralib qolgani, odamlar va bolalar o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi.

Tadqiqotda bola obrazining xarakter sifatida shakllanishida dialog va roviy rivoyasi, detallar, badiiy tasviriy vositalar hamda konfliktning kontrast va kollizion usullaridan foydalanilgan. Masalan, “Erkak” hikoyasida N.Norqobilov oddiy hayotiy voqea orqali o‘zining badiiy konsepsiyasini yaratadi. Yetimlik qiyinchiliklari, otasizlik alamlarini birgina unni tegirmonga olib borish aspektida realistik tasvir orqali ochib beradi. Oilaviy munosabatlar ham aynan tegirmonga un olib borish fonida ta’sirli va ishonarli tarzda bayon etiladi. Ammasi va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi munosabat ham shu o‘rinda berib boriladi. Bola xarakterini shakllantirishda ammasining o‘g‘illari va ularning turmush tarzi asos qilib olinib, konfliktning kontrast usulidan foydalangan holda ammaning o‘g‘illari va bola obrazi solishtiriladi.

Ammasining o‘g‘illarini dangasaliklari, befarqliklari bolada ichki qarama-qarshiliklarni ya’ni, kollizion konfliktni keltirib chiqaradi. Aynan shu o‘rinda bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar kuzatiladi, bu jihat esa xarakter shakllanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyada ona va bola obrazi ham real voqeliklar asosida ochib beriladi. Onasining farzandlarini boqish uchun qilgan harakatlari, bola va onaning bir-biri oldidagi burch va mas’uliyati har tomonlama ishonarli tasvirlanadi. Xarakter yaratishda muallif ona-bola o‘rtasidagi dialog va roviy rivoyasidan foydalanadi. Natijada, hikoya badiiy butunligiga erishadi. Hikoya badiiy butunligi esa bevosita badiiy tasvir vositalari asosida amalga oshiriladi. Mazkur hikoyada badiiy obrazlilik tabiat tasviridagi badiiy tasviriy ifodalar orqali amalga oshiriladi. Bola obrazi ham aynan shu vositalar yordamida mukammal badiiylikka erishadi. Hikoyada tegirmon badiiy detali ham qo‘llangan bo‘lib, u qahramon xarakterini yaratishda, uning ruhiy olamini chizishda muhim g‘oyaviy-badiiy funksiya bajargan. Xalqimizda ishbilarmon, uddaburon, irodasi baquvvat insonlarga nisbatan “tegirmonga tushsa butun chiqadi”, degan naql qo‘llanadi. Yozuvchi ham tegirmon detali orqali bola obrazining xarakter qirralarini parallel ravishda ko‘rsatib bergan. Hikoyada tegirmon hayot, turmush timsoli sifatida gavdalanadi. Tegirmon bug‘doy

donlarini un qilib qaytadan ishlab chiqargani kabi bola ham otasiz turmushning beshafqat zarbalariga dosh berib, sinovli dunyoning qora qozonida qaynab, hayot deb atalmish tegirmonda ezilib, yanchilib, alaloqibat haqiqiy erkak sifatida “pishib” yetiladi. Ko‘rinib turganidek, yozuvchi mahorati bilan topib qo‘yilgan birgina detal butun bir asar mazmunini anglata olgan.

Tahlillarga ko‘ra, Normurod Norqobilov inson obrazini yaratishda muallif xarakteristikasi va portret tasvirlarga, Isajon Sulton esa personajning monologik nutqi va badiiy psixologizm kabi muhim unsurlarga tayanishi bilan ajralib turadi.

Quyidagi jadvalda ikki adib hikoyalaridagi mushtarak obrazlar shartli ravishda tasnif qilindi. Mazkur tasnif tadqiqot doirasida yetakchi obraz turlarini umumlashtirish maqsadida tuzildi. Unda keltirilgan dastlabki obrazlar nisbatan xususiylik kasb etsa, hayvonot, nabotot va jamodot obrazlari umumiylik xususiyatiga ega bo‘lib, tasnifni yanada kengaytirish imkoniyati mavjud:

№	**Badiiy obraz Mushtarakligi**	**Isajon Sulton**	**Normurod Norqobilov**
1.	Bola obrazi	“Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi”, “Shamolli kecha”, “Tuman”, “Oftob chiqdi olamga”, “Yak-40”, “Qish ertaklari”.	“Kapalak”, “O‘g‘il”, “Erkak”, “Chetdagi odam”, “Sut sotuvchi bola”, “Ro‘molcha”, “Dashtda”, “Quyoshi botmaydigan yurt”, “Yangi ertak”.
2.	Ota obrazi	“TODD”, “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Ozor”, “Ota qasidasi”.	“Olim o‘g‘il”, “O‘g‘ri”.
3.	Chol obrazi	“Orif”, “Avliyo”.	“Ziyoratgoh”, “Chol va bola”, “Chol va ilonlar”, “Mung”, “Judolik quvonchi”.
4.	Ijodkor obrazi	“Kapalaklar o‘limi”, “Qoraqush yulduzining siri”.	“Quvonchli kun”, “Vaqt”, “Tugatilmagan surat”, “So‘nggi surat”, “Aka-ukalar”.
5.	Ayol obrazi	“Bibi Salima”, “Men, onam va O‘rta Yer dengizi”, “Yog‘och kavush”.	“Shim yoxud xotinlar janjali”, “Alp-onadan”, “Bo‘ron qo‘pgan kun”, “Ro‘molcha”, “O‘g‘ri”
6.	Hayvonot obrazi	“Tuman”, “Ayvon”, “Bo‘ri”, “Ozor”.	“Do‘ngkalla”, “Yozning birinchi kuni”, “Bo‘taloq”.
7.	Nabotot obrazi	“Mening gulim”.	“Yetim qolgan gullar”, “Keksa tut”, “Yong‘in”.
8.	Jamodot obrazi	“Oftob chiqdi olamga”, “Manzil”.	“Buloq”, “Enatosh”, “Quyosh tutilgan kun”, “Quduq”.

Demak, har ikki adib hikoyalarida badiiy obrazlar tizimi ochiq va kengayuvchan xarakterga ega bo‘lib, unda turli obraz qatlamlari o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Bu jihat zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida obraz yaratish tamoyillarining tizimli va ko‘p qirrali tus olganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobning **“Badiiy detalning obraz yaratishdagi estetik funksiyalari”** deb nomlangan ikkinchi faslida badiiy detalning obraz yaratishdagi o‘rni tizimli tahlil qilinib, detal obraz ruhiyatini ochish, ijtimoiy-maishiy muhitni ifodalash, qahramon harakatlarini izohlash hamda muallif konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiluvchi poetik birlik ekani asoslab berilgan.

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida detal oddiy tasvir unsuri emas, balki asarning semantik markaziga aylanishi va sarlavha darajasiga ko‘tarilishi muhim hodisa sifatida aniqlangan hamda “detal-obraz-sarlavha” o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik tahlil qilingan. Yozuvchilar hikoyalarida detal obraz darajasiga ko‘tarilishi bilan ahamiyatlidir. Ma’lumki, detalning obrazga aylanish mezonlari:

1. Oddiy tasvir emas, qahramon ruhiy holati, ichki dunyosi va asar g‘oyasini ochishga xizmat qilishi;
2. Bir martalik bezak emas, qayta-qayta takrorlanib, ma’no-mohiyat kasb etishi;
3. Syujet yoki konflikt bilan uzviy bog‘lanishi;
4. Ramziy ma’no qatlamlariga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Isajon Sultonda detal ko‘proq falsafiy-ramziy xarakterga ega bo‘lsa, Normurod Norqobilovda ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Xususan, Isajon Sultonning “Yog‘och kavush” hikoyasidagi badiiy detal oddiy tasvir vositasi emas, balki inson taqdiri, hayot uchun kurash, sabr-u bardosh kabi falsafiy mavzularni yorituvchi poetik unsur sifatida ham obraz, ham sarlavha darajasiga ko‘tariladi. Birgina detal hikoyaning chuqur psixologik va dramatik mazmunini yanada kuchaytiradi.

Hikoyada yog‘och kavush detali hikoyaning asosiy leytmotivini ta’minlaydi. Unda ijtimoiy hayot qiyinchiliklari tufayli ro‘shnolik ko‘rmagan otaning iztiroblari ifoda etiladi. Ota o‘z qizining qorni nonga to‘yishi, chiroyli usti-bosh bilan ziynatlanib yurishini orzu qilib, uni baxtli ko‘rish uchun, og‘ir mehnatdan qutiltirish uchun yog‘och kavush yasab beradi. Uning oyog‘ini katta bo‘lib ketmasligi uchun harakat qiladi. Muallif sholichi boyni quyidagicha tasvirlaydi: “Sholichi boy semiz, ko‘zlarini yog‘ bosib ketgan kishi bo‘lib, gavdasini ko‘tarolmagani uchun uni aravaga solib yurishar, ba’zan taxtiravonga solib ham kelishardi”[17].

Tasvirda keltirilgan detallar Sholichi boyning qanday odam ekanligi haqida to‘liq ma’lumot beradi. Ota yaxshi kun ko‘rishi va og‘ir mehnatdan qutilishi uchun yosh qizchasini shu odamga berishga majbur bo‘ladi. Xuan-Shi undan-bundan yuqori tabaqa kishilariga qanaqa qizlar yoqishini surishtiradi. Va qizini ular istagandek tarbiyalash uchun unga yog‘och kavush kiydirishga qaror qiladi. Muallif shunday izohlaydi: “Xuan-Shining yuragi achishsa-da, bolamning kelajagini o‘ylab shunday qilyapman-ku, degan o‘y taskin berar edi. Bugun u juda charchadi. Oyoqlarini sholipoya suvchayonlari, zuluklari chaqib tashlagan, bilaklari achishar, tani orom istar edi. Bola hayot nimaligini qaydan bilsin? Hali vaqti kelganida, shu qashshoqlik girdobidan chiqargani uchun otasidan minnatdor bo‘ladi, albatta. O‘ziga qo‘yib bersang, ota yashab o‘tgan qattiq kunlar uning ham boshiga kelsinmi? Bolasining joni hozircha og‘risa og‘risin, bu uqubat ortida qizchaning baxtli kelajagi

[17] Султон И. Ёғоч кавуш. // Қорақуш юлдузининг сири. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.277.

turibdi, axir”[18]. Muallif rivoyasida berilgan “sholipoya suvchayonlari”, “zuluklari” detallari otaning og‘ir ahvolini ko‘rsatadi, qizini ham shu ko‘yga tushmasligini istaydi. Mazkur parchadagi jismoniy og‘riqni ifodalagan tasviriy detallar orqali ruhiy konflikt jarayoni yuzaga kelgan. “Yuragi achishsa-da”, “bilaklari achishar” ifodalari tana-ruh kontrastini keltirib chiqargan. Bu azoblarga chidashni o‘zi bo‘lmasligini kitobxon ham tushunadi. Keltirilgan detallar oilaning og‘ir ahvoli haqida to‘liq ma’lumot beradi. Shunday qilib, detal hikoyada obraz ijtimoiy hayotini ko‘rsatib berishdan tashqari, otaning o‘z qiziga qo‘ygan talabi asosli ekanligini ham bildiradi. Shu tariqa detal ichki konflikt va g‘oyaviy qarama-qarshilikni tashuvchi poetik vosita sifatida muallif konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Ya’ni zuluklar chaqib tashlagan oyoqlar detali orqali oilaviy muhitning og‘irligi, otaning ilojsizligi, hayotning beshafqatligi ko‘z oldimizga keladi.

Detal hikoya janri kompozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida asar syujeti va obrazlar tizimi bilan poetik munosabatda bo‘ladi. Isajon Sultonning “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Yog‘och kavush”, “Tuman”, “Oftob chiqdi olamga”, “Ozor”, “Otaga qasida” hamda “Yusuf va Zulayho” kabi hikoyalarida detalning badiiy funksiyasi ortib borib, u asar qahramonlari va personajlarining ma’naviy qiyofasini ijtimoiy-maishiy yo‘sinda emotsional tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Xullas, Isajon Sulton hikoyalarida badiiy detal obraz yaratish vositasi sifatida:

1)obraz ruhiy holatini ochishda;

2)ijtimoiy hayot tasvirini berishda;

3)bosh qahramon harakatlarini izohlashda;

4)obraz munosabatlarini aniqlashda;

5)muallif konsepsiyasini ifodalashda badiiy-estetik funksiya bajaradi.

Uchinchi bob **“Normurod Norqobilov va Isajon Sulton hikoyalarida badiiy nutq shakllari: mushtaraklik va individuallik”** deb nomlanib, birinchi faslda **“Aka-ukalar”, “Quvonchli kun”, “Qish ertaklari”, “Bayroq”, “Men, onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyalarida muallif nutqi va uning shakllari”** o‘rganilgan.

Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida muallif nutqi badiiy nutq shakllari ichida dominant poetik vosita bo‘lib, u nafaqat voqelikni bayon qilish, balki asar qahramonlarining ruhiyatini chizish, ularning xatti-harakatini ifodalash, personajlar mansub bo‘lgan maishiy turmush, oilaviy sharoit, ijtimoiy muhitni ochib berish uchun muhim strukturaviy tayanch sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, muallif nutqi yozuvchining ijodiy niyatini, estetik qarashlarini va badiiy mahoratini namoyon qilishi bilan ham xarakterlanib, hikoyalarning g‘oyaviy va kompozitsion butunligini ta’min etadi.

Normurod Norqobilov hikoyalarida asosan, obyektiv muallif nutqi ustuvorlik qiladi. Adib hikoyalaridagi qahramonlarning ko‘pchiligi nafaqat ismi, balki yoshi, xarakteri, kasbi, odamlar orasida tilga tushgan fazilati yoki illatiga ko‘ra qo‘shimcha laqabi bilan tilga olinadi: Chori dono (“Chetdagi odam”), Boqi sho‘ro, Usmon tajang (“Ziyoratgoh”), A‘zam chol, Jovli juvozkash (“Qishloq chetidagi yolg‘iz it”), Sodiq o‘pka (“Yozning birinchi kuni”), Shayman chol (“Olim o‘g‘il”), Sobir polvon,

[18] Султон И. Ёғоч кавуш. // Қорақуш юлдузининг сири. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.278.

Boborayim gov (“Quyosh tutilgan kun”), Orif chavandoz (“Aka-ukalar”) shular jumlasidandir. Qahramonlarni mazkur tavsifiy laqablar bilan nomlash orqali yozuvchi obrazning dastlabki semantik portretini shakllantiradi va xarakterni individuallashtiradi.

Isajon Sulton esa voqea-hodisalarni bayon qilishda o‘z “men”ini yashirmagani, hikoyada personajning yaqini yoki asar voqealari ishtirokchisi sifatida qatnashgani uchun muallif nutqi ko‘pincha personaj nutqi bilan qorishiq holda, birinchi shaxs nutqi va retrospektiv bayon orqali namoyon bo‘lib, bu jihatlar ikkala yozuvchining badiiy uslubida badiiy nutqning individual va mushtarak xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Yozuvchining “Qoraqush yulduzining siri”, “Yak-40”, “Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi”, “Orif”, “Yog‘och kavush” kabi hikoyalarida obyektiv bayon yetakchilik qiladi, muallif esa go‘yoki ko‘rinmas bo‘lib turadi. “Bayroq” hikoyasida voqelik muallif nutqi orqali bayon qilinadi. Unda muallifning o‘zi ishtirok etadi. “Men, onam va O‘rta Yer dengizi”, “Olisdagi urushning aks-sadosi”, “Kapalaklar o‘limi”, “TODD”, “Ayvon”, “Bog‘i Eram” kabi hikoyalari boshidan oxiriga qadar asar qahramonlari – birinchi shaxs nutqi vositasida bayon qilinadi. Voqealarni hikoya qilishning qahramonlardan biriga topshirilishi xolislik uchun g‘oyat muhim sanalib, asar voqealarini ishonchli, qiziqarli va jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Hikoyada tasvirlanayotgan hayotiy voqea va hissiy-xususiy kechinmalarning yozuvchi shaxsidan ajratilishi o‘quvchi va asar qahramonlari o‘rtasidagi ko‘rinmas “devor”ni qulatadi.

Adiblar hikoyalarida muallif nutqiga daxldor birlamchi “adabiy hudud”lar: portret tasviri, peyzaj tasviri, psixologik tasvir yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Normurod Norqobilov hikoyalarida muallif nutqi ko‘proq portret tasvirlarda namoyon bo‘lsa, Isajon Sulton peyzaj tasviriga keng o‘rin beradi. Psixologik tasvirlar N.Norqobilov hikoyalarida personaj nuqtai nazari singdirilgan bilvosita muallif nutqi bilan ifodalansa, Isajon Sulton asarlarida qahramon ichki kechinmalarini ifodalash uning o‘ziga topshiriladi.

Bu ikki jihatni batafsil yoritish garchi hikoya uchun hajm jihatdan muammo bo‘lsa-da, yozuvchilar bunga erishgan hamda uslubiy individualizmini qat’iy namoyon qilgan.

Hikoyadagi aniq misollar orqali muallif nutqining kengaygan funksional doirasi quyidagi jihatlarda ko‘rinadi:

- Syujet va kompozitsion butunlikni ta’minlash;
- Badiiy makon va zamonni shakllantirish;
- Portret, peyzaj va psixologik tasvirni asarning badiiy g‘oyasini ochishga yo‘naltirish;
- Qahramonlar xatti-harakatini, fikr-mulohazalarini tahlil etish;
- Voqeliklarga munosabat bildirish;
- Qahramonning psixologik holatini va xarakterini ochish;
- Personajning his-tuyg‘ularini, dard-u hasratlarini, o‘y-xayollarini ifodalash;
- Milliy til boyligini oshirish;
- Badiiy asar g‘oyasini ochishda muhim poetik vosita vazifasini bajarishda.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Monologik nutq qahramon ruhiy olamini ifodalash vositasi sifatida”** deb nomlanadi. Badiiy nutq tiplari bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar – M.Baxtin ham, V.Kojinov ham, A.Fyedorov ham monologik nutqni alohida nutq sifatida ajratishmagan. Adabiyotshunos olim Yo‘ldosh Solijonov monologik nutqni asar strukturasida muhim o‘rin tutishini ta’kidlab, uni alohida nutq tipi sifatida baholaydi va ovozli (tashqi), ovozsiz (ichki) va epistolyar turlari mavjudligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi[19]. Biz ham hikoyalardagi nutq tiplarini belgilashda Y.Solijonov tasnifiga tayanib, tahlilni amalga oshirdik.

O‘rganilgan tahlillarga ko‘ra, Normurod Norqobilov hikoyalarida ichki monologik nutq ustuvorlik kasb etib, u konflikt, kontrast va kollizion jarayonlar natijasida yuzaga keladi. Ya’ni asar qahramonlarining o‘zi bilan o‘zining ichki to‘qnashuvi, muhit va jamiyat bilan murosasizligi ruhiyatiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan holda monologik nutq ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Natijada mazkur nutq shakli, asosan, personajning voqealar jarayoniga, ijtimoiy muhitga, asar qahramonlariga noroziligi, e’tirozi, muayyan fikrga qo‘shilmaslik, o‘z-o‘zini isbotlash kabi munosabatlarni ifodalashda namoyon bo‘ladi. Adib asarlarida ichki nutq ko‘p hollarda ritorik so‘roq, murojaat shaklida ifoda etiladi: “Olim og‘il”, “Chetdagi odam”, “Ro‘molcha” va boshqalar.

N.Norqobilov hikoyalarida qahramonlarning tashqi monologik nutqiga ko‘p o‘rin bermaydi. Balki monolog dialogdan o‘sib chiqadi. Natijada dialogning monologik nutqqa aylanib ketish hodisasi ro‘y beradi. Bu holat “Tungi mehmon” hikoyasida quyidagicha ifodalangan:

“ – Bilsang, ular menga xuddi zaharli ilonga qaraganday boqishadi! – Qilichbek nigohini boshqa nuqtaga oldi. – Bu turishlarida, erta-indin nodon tog‘alariga qo‘shilib menga qo‘l ko‘tarishdan ham toyishmaydi. Ularni o‘zimcha tarbiyalashga xo‘p urinib ko‘rdim. Biroq har ikki gapning birida ota degan jonivor loyga qorilib tursa, bergan tarbiyang qumga sepilgan suvday bir gap ekan. Rahmatli qaynotam, sen bizga to‘g‘ri kelmaysan, deganda, men ahmoq, u kishidan xafa bo‘lganman, yetimligimni nazarda tutayapti deb. Endi bilsam, men nodonni ayagan ekan. Muhabbatdan ko‘zim shapaqlanib, johil to‘daga intilgan ekanman. Mana endi, yaxshining yomon, yomonning yaxshi bo‘lmog‘iga gumonlangan holda o‘zim pishirgan zaharli oshni aylanib ham, o‘rgilib ham ichib kelayapman…”[20] Keltirilgan parchada personajlarning dialogik nutqi Qilichbekning monologik nutqiga aylanib, uning oilaviy muhiti, xotini va farzandlari bilan munosabatidan iborat chuqur o‘ylari, iqrorlari tarzida namoyon bo‘lgan. Ushbu monologning yana bir xususiyati unda o‘zganing nutqi ham aks etganidadir. O‘zganing nutqi bu asardagi birorta voqea-hodisada qatnashmagan esa-da, uning (qaynotaning) so‘zi boshqa personaj (Qilichbekning) nutqi orqali kirib kelishi bilan zohir bo‘lyapti.

Isajon Sulton hikoyalarida esa tashqi monologik nutq ustunlik qiladi. Odatda kichik epik janrdagi asarlarda monologik nutqqa katta o‘rin berilmaydi. Lekin Isajon

[19] Солижонов Й. XX асрнинг 80-90- йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2002. – Б.63.

[20] Норқобилов Н. Тунги меҳмон. // Танланган асарлар. – Тошкент: Firdavs-Shoh, 2022. – Б.214.

Sulton hikoyalari bu qoidani chetlab o‘tadi. U asar g‘oyasini o‘quvchiga yetkazishda monologik nutqni asosiy vositaga aylantirib oladi. Uning ijodiy yo‘nalishi lirik uslubga moyil bo‘lgani uchun bayon ta’sirchanligini oshirishning eng qulay yo‘li sifatida qahramonlar monologidan ustalik bilan foydalanadi. Adib hikoyalarida monologik nutq faqat qahramon ruhiyatidagi ichki to‘qnashuvlar mahsuli sifatida namoyon bo‘lmaydi. Aksincha, hayot ma’nosini izlayotgan personajning borliq, samovot va tabiat mohiyati haqidagi falsafiy mushohadalari ham monologik nutq vositasida badiiy ifodasini topadi.

“Mega-intellekt” hikoyasidagi qahramonning ichki va tashqi monologi muallif izohisiz, aralashuvisiz boshlanishi va tugashi bilan ajralib tursa, “Tuman” hikoyasidagi monologlarning vujudga kelish vaziyati, makoni, vaqti, personajning ruhiy holati avval muallif tomonidan tasvirlanadi, keyin esa hikoya qismlarga bo‘lingan holda “Katta akaning hikoyasi”, “O‘rtancha aka hikoyasi”, “Kichik akaning hikoyasi”, “Kenjatoy hikoyasi” beriladi. Natijada personajlarning o‘zi muallif aralashuvisiz hikoya so‘ngiga qadar monolog ko‘rinishida fikrlarini, voqea-hodisaga munosabatlarini, ichki kechinmalarini, o‘y-xayollarini bayon etishadi. I.Sultonning “Bibi Salima”, “Kapalaklar o‘limi”, “Oftob chiqdi olamga” kabi hikoyalarida hajman katta, keng qamrovli, personajni ham, o‘qirmanni ham o‘ylantiruvchi ichki va tashqi monologik nutq asarning “yuragi” vazifasini bajaradi. Adabiyotshunos Y.Solijonov ta’kidlaganidek, “har bir badiiy asar yaxlit olinganda ulkan monologdan iborat bo‘ladi”[21]. I.Sultonning ham ko‘plab hikoyalari monologik nutq asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

1. XXI asr birinchi choragi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkur va uslubiy yangilanishlar jarayoni uzviy bog‘liqlik kasb etib, Isajon Sulton va Normurod Norqobilov ijodida bu jihat an’ana va zamonaviy estetik qarashlar sintezi, realistik ifoda bilan ramziy-majoziy tasvirlarning uyg‘unlashuvi, voqeadan ko‘ra ruhiy jarayonning ustuvorligi, ichki kechinmaning asar markaziga chiqishi kabi tendensiyalar asosida namoyon bo‘lgan.

2. Mazkur davr hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyati bir davrning o‘zida badiiy tafakkurning turli yo‘nalishlari baravar faollik ko‘rsatayotganida ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalari misolida davr mahsuli bo‘lgan kichik epik asarlarni shartli ravishda noan’anaviy ramziy-falsafiy hikoyalar va an’anaviy realistik hikoyalar kabi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jarayon adabiyotda sintez hodisasini yuzaga chiqarib, hikoya janrida realistik tasvir va ramziy ifoda, milliylik hamda umumbashariylik, an’ana va novatorlik bir-biriga uyg‘un holda dialektik aloqada shakllanayotganini ko‘rsatadi.

3. Yozuvchilar badiiy-estetik maqsadini amalga oshirish uchun bola obraziga ko‘proq murojaat qilgan. Ikki adib ham yetimlik motivi fonida ularning ruhiy dunyosi, xarakterining shakllanishi, ijtimoiy muhitga munosabatlarini ifoda etgan. Xususan, Normurod Norqobilov ijodida bola siymosi asosan ruhan ezilgan obraz

[21] Солижонов Й. XX асрнинг 80-90- йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2002. – Б.64.

sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchining “Erkak”, “Chorraha”, “Xesh”, “Yangi ertak” kabi hikoyalarida yetimlikning ayovsiz so‘qmoqlaridan o‘tib borayotgan ko‘ngli yarim bolalar obrazi gavdalantirilsa, “Sut sotuvchi bola”, “Qizcha”, “Kapalak” kabi hikoyalarida esa ularning murosasiz fikrlari, ota-onasining e’tiborsizligi oqibatida yakkalanib, jamiyatdan ajralib qolgani, odamlar va bolalar o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Shu bois yozuvchi bola obrazini ifodalashda konfliktning kontrast va kollizion usullaridan mahorat bilan foydalanadi. Isajon Sulton asarlarida esa bola obrazi ojiz odam sifatida tasvirlanmaydi. Xususan, “Tuman”, “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi”, “Shamolli kecha”, “Qish ertaklari” kabi hikoyalarda bola obrazi ruhan, ma’nan baquvvat, irodasi va iymoni mustahkam, fikrlayotgan, kurashchan inson sifatida tasvirlanib, bola shaxsining shakllanish jarayoni badiiy-falsafiy mazmundorlik kasb etgan.

4. Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida ota obrazi tasviriga badiiy tafakkuri va estetik konsepsiyasiga ko‘ra turlicha yondashgan. I.Sulton hikoyalarida ota obrazi (“Ozor”, “Tuman”, “Yog‘och kavush”) personaj qalbida yashovchi xotira, yo‘qotilgan ma’naviy tayanch sifatida sukutda, masofada yo‘qlik holatida ifodalanib, psixologik-falsafiy jihatdan talqin qilinsa, N.Norqobilov asarlarida esa real maishiy turmush bilan bog‘langan, ijtimoiy va axloqiy mas’uliyat yuklangan obraz (“Olim o‘g‘il”, “Kapalak”, “Xesh”) ko‘rinishida aks ettirilgan.

5. Normurod Norqobilov badiiy obraz yaratishda xarakterlarni realistik tasvirlashga e’tibor qaratsa, Isajon Sulton hikoyalarida badiiy obrazlar ko‘pincha timsollar va ramzlar orqali ochiladi. Chunki Normurod Norqobilov an’anaviylikka sodiq qolgan holda realistik yo‘nalishda qalam tebratsa, Isajon Sulton mazkur tasvir uslubini rivojlantirib, boyitib, shu paytgacha sinalmagan shakl va qiyofalarga solayotgan novator yozuvchidir. Uning birgina “Bo‘ri” hikoyasida ozodlikni sog‘inuvchi erkak va bo‘ri obrazlarini bir-biriga zid va parallel qo‘ygan holda assotsiativ tafakkur asosidagi obrazni yaratgan.

6. Normurod Norqobilov va Isajon Sulton hikoyalarida detallar obraz darajasiga ko‘tarilgani bilan ahamiyatli. Jumladan, Normurod Norqobilovning “Quduq”, “Kapalak”, “Ro‘molcha”, “Tovatosh”, “Kitob” kabi hikoyalarida kapalak, ro‘molcha, tovatosh, kitob detallari obraz sifatida sayqal topgan holda asar syujetida muhim rol o‘ynagan va muayyan badiiy maqsadga xizmat qilgan. Natijada hikoya sarlavhasiga ham olib chiqilgan. Isajon Sultonning “Yog‘och kavush”, “Kapalaklar o‘limi”, “Shamolli kecha” hikoyalarida ham kavush, kapalak, shamol obraz-detallar hisoblanib, sarlavha o‘laroq asar boshidan joy olgan. Uning hikoyalarida qishloq, bog‘, quyosh, yomg‘ir, daraxt, gullar, soy, ariq kabilar makon yoxud tabiat hodisasi tasvirini ifodalasa ham, unga poetik vazifa yuklanib, yo detalga yoki obrazga aylangan. Normurod Norqobilov hikoyalarida an’anaviy obrazlar yetakchilik qilsa, Isajon Sulton asarlari ramziy-timsoliy, metaforiklashgan obrazlari bilan ahamiyatlidir.

7. Normurod Norqobilov hikoyalarining deyarli barchasi obyektiv bayon asosiga quriladi. Asarda muallif nutq jilovini hech bir qahramonga berib qo‘ymasligi bilan xarakterlanadi. Isajon Sulton hikoyalarida esa voqealar birinchi shaxs tilidan ham, goh muallif, goh personaj tilidan ham hikoya qilinaveradi. Eng ahamiyatlisi,

adib hikoyalarining ko‘pchiligi boshidan oxiriga qadar personaj nutqi orqali bayon etiladi.

8. Normurod Norqobilov qahramonlar xarakterini ochish, personaj dunyoqarashi va ruhiyatini ifodalashda ichki monologik nutq imkoniyatlaridan foydalansa ham, adib hikoyalarida monologik nutq katta hajmli yoki yaxlit holda kuzatilmaydi. Balki qisqaroq bayon etiladi va ko‘proq suhbatlarda “tug‘iladi”. Natijada dialogik nutqning monologga aylanib ketish hodisasi ro‘y beradi. Adib asarlarida qahramonlarning yaxlit monologi deyarli uchramaydi. Isajon Sulton hikoyalarida esa monologik nutq ustunlik qiladi. Odatda kichik epik janrdagi asarlarda monologik nutqqa katta o‘rin berilmaydi. Lekin Isajon Sulton hikoyalari bu qoidani chetlab o‘tadi. U asar g‘oyasini o‘quvchiga yetkazishda, personaj ruhiyatining sirli qatlamlarini ochishda monologik nutqni asosiy vositaga aylantirib oladi.

9. Isajon Sulton va Normurod Norqobilov hikoyalarida monologik nutq qahramonning siyratini, aslini baholovchi mezon bo‘lib, asarning falsafiy mazmunini ta’minlaydigan omil sanaladi. Unda nafaqat personajning ruhiy holati, ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi, balki yozuvchining ham iqrorlari, hayotiy xulosalari, savollari, bir so‘z bilan aytganda, falsafiy tafakkuri o‘z aksini topadi. Xususan, Isajon Sultonning avtobiografik xarakterdagi “Men, onam va O‘rta Yer dengizi”, “Mega-intellekt”, “Bibi Salima” hikoyalari hamda Normurod Norqobilovning “Quyosh tutilgan kun”, “Xesh”, “Dashtda” kabi asarlarida ichki va tashqi monologik nutq orqali muallifning shaxsiy pozitsiyasi, falsafiy qarashlari, axloqiy prinsiplari namoyon bo‘lgan. Shuningdek, mazkur hikoyalardagi monologik nutq asar personajlarining ruhiy holatini tahlil qilish bilan birga, XXI asr o‘zbek hikoyachiligida falsafiy mazmunni shakllantirishda muhim poetik omil ekanligi aniqlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2026.10.06. Fil.10.09
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
FERGANA STATE UNIVERSITY

FERGANA STATE UNIVERSITY

OKHUNOVA GUZALKHON KHAMDAMBEK KIZI

THE POETICS OF UZBEK STORIES OF THE EARLY 21st CENTURY (on the example of the works of Isajon Sultan and Normurod Norqobilov)

10.00.14 – Uzbek Literature of the 20th Century and the Contemporary Literary Process

ABSTRACT
of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL sciences

Fergana – 2026

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered by Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under №B2024.3.PhD/Fil4982.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English and Russian (Resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of Scientific Council and on the website of "ZiyoNet" information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Kosimov Abdugopir Abdukarimovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Nasirov Azimidin Normamatovich Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Jizzakh State Pedagogical University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council of Ferghana State University, which awards scientific degrees under the title DSc.03/2026.10.06.Fil.10.09. "28" november 2026, at 9:00. (Address: Fergana city, Burhoniddin Marghinoniy street, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz)

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Ferghana State University (Registered under number 853). Address: 100151, Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244-44-02.

The abstract of the dissertation was distributed on "07" november 2026

(Registry report number 8 dated "07" 11 2026.)

A.G.Sabirdinov
...ctor's Degree ...Council, Doctor of ...

R.M.Umurzakov
...the Doctor's ...Scientific Council, ...Philology, ...

Z.A.Rahimov
Chairman of the Scientific Seminar at the Doctor's Degree awarding Scientific Council, Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (Annotation to PhD abstract)

The relevance and actuality of the topic. In world literary studies, revealing a writer's artistic mastery, the distinctive features of the language and style of literary works within a particular genre, as well as identifying the possibilities of artistically representing the harmonious relationship between the reality of a literary work and the human psyche, is of significant practical importance. In particular, changes in the thinking of individuals capable of global reasoning, the increasing relevance of the influence of literary works on human worldview and cognition, and the need to study separately the poetic and stylistic features of literary texts indicate the necessity of analyzing this process on the basis of traditional and modern principles.

In world literary scholarship, considerable attention is being paid to the study of the poetics of the short story genre and its theoretical foundations through contemporary approaches. The issue of conducting an in-depth analysis of a writer's artistic mastery through the study of the thematic scope, character typology, and expressive possibilities of literary discourse in the poetic features of twenty-first-century short stories has gained particular relevance. This is because the short story genre has undergone a number of transformations in the twenty-first century. In particular, changes observed in the psychology of protagonists, literary discourse, themes, and modes of expression have altered the genre's previous state. In short stories, the novelistic element has become more prominent than narrative exposition. Characters have increasingly emerged as individuals who boldly express universal human concerns while preserving the spirit of national identity and striving for progress. The tendency toward symbolism and metaphorical expression in short stories has become more pronounced. Literary discourse has also undergone changes. These aspects necessitate an appropriate approach to literary works and the expansion of scholarly and theoretical analysis in the contemporary literary process.

During the years of independence, attention was focused on the study of literary works from the perspective of new theoretical approaches to literary analysis. The President's statement, "Today, in order to preserve our national identity, elevate the consciousness and intellectual outlook of our people, and thereby ensure the consistent development of our country, it is necessary, above all, to support the spheres of literature, culture, and art"[1], opened broad prospects for the further development of national literary studies. As a result, a number of changes emerged in both the form and content of scholarly research. In Uzbek literary scholarship, renewed attention was devoted to the study of the poetics of literary works, regarded as an important component of artistic creativity. Considerable emphasis was placed on the investigation of the foundations of the artistic development of contemporary Uzbek short fiction, the skill of twenty-first-century writers in creating literary characters, authorial conception, the structure of literary texts, and the forms of artistic discourse through rigorous literary analysis. In this regard, the present study examines the trends in the poetic development of twenty-first-century Uzbek short

[1] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б.269.

fiction, focusing on writers' mastery of artistic characterization, as well as issues of language and style, as the principal criteria of literary artistry.

This dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6097 of October 29, 2020, "On the Approval of the Concept for the Development of Science until 2030"; the Decree No. PF-60 of January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-200 of July 3, 2023, "On Measures to Ensure the Effective Organization of Public Administration in the Fields of Higher Education, Science, and Innovation within the Framework of Administrative Reforms"; the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 128 of March 13, 2024, "On Measures for the Implementation of the Innovation Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2024–2025", as well as other regulatory and legal documents related to this area of activity.

The compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. This research is done in accordance with the prior direction of the science and technology development in the Republic №1. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational improvement of the information society and democratic state".

The Scope of study of the topic. In world literary scholarship, the studies of such scholars as M. Bakhtin, V. Belinsky, M. Khrapchenko, E. Khalizev, A.Veselovsky, M. Grishman, V. Vinogradov, B. Shklovsky, A. Potebnya, G.Pospelov, F. Schelling, Y. Dobin, Y. Borev, N. Tamarchenko, A. Yesin, Ş. Sağlık, Ö. Lekesiz, N. Tonga, M. Albayrak, O. Kuzmina, A. Harmancı, İ. Gülüzar, and A. Bülent[2] have been of considerable significance in investigating the short story genre, its theoretical foundations, and issues related to writers' artistic mastery.

In Uzbek literary scholarship, the artistic features of the short story genre have been comprehensively examined in the textbooks, monographs, and dissertations of such scholars as I. Sultan, M. Koshjonov, O. Sharafiddinov, A. Alimuhamedov, S. Mamajonov, N. Vladimirova, N. Karimov, S. Mirvaliyev, U. Normatov, N.

[2] Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Белинский В. Собрание сочинений. Т.3. – М.: Художественная литература, 1978; Потебня А. Эстетика и поэтика. – М.: Исскуство, 1976; Потебня А. Теорическая поэтика. Из записок по теории словесности. – М.: Высшая школа, 1990; Храпченко М. Горизонты художественного образа. – М.: Художественная литература, 1986; Хализев Е. Теория литературы. – М.: Высшая школы, 1999; Веселовский А. Историческая поэтика, – М.: Высшая школа, 1989; Гришман М. Ритм художественной прозы. – М.: Сов писатель, 1982; Виноградов В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школы, 1971; Поспелов Г. Введение в литературоведение. – М.: Высшая школы, 1983; Добин Е. Жизненный материал и художественный сюжет. – М.: Сов.писатель,1958; Тамарченко Н. Теория литературы // Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003; Есин А. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта-Наука, 2002; Sağlık Ş. Hikaye/anlatı/yorum. – Ankara: Hece Yayınları, 2014; Lekesız Ö. Türk öykücülüğünün yüz yıllık hikayesi. Dergah, IX (106), 1998; Tonga N. Hikayeye terminologik bir yaklaşım. – Turkish studies, 3, (1), 2008; Albayrak M. Türk öykücülüğünde deneysellik farklı metinler vaöyküler. – Ankara: Kanguru Yayınları, 2010; Кузьмина О. Рассказы Л.Т. Аверченко (жанр, стил, поэтика): Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Тверь, 2003; Harmanjı A. Hüseyin Rahmi Gürpınar'ın öyküleri ve öykücülüğu: doktora tezi. – Konya, 2010; Gülüzar I. Murat Gülsoy'un hikayeleri ve hikayeçiliği: doktora tezi. – İstanbul, 2024; Bülent A. Steven Millhauser, Aimee Bender, Kelly Link ve Kevin Brockmeier'ın öykülerinde büyülü gerçekçilik: doktora tezi. – Ankara, 2021.

Rakhimjonov, A. Rasulov, B. Nazarov, Y. Solijanov, B. Karimov, U. Hamdamov, H. Boltaboev, A. Rakhimov, D. Quronov, S. Umirov, U. Jurakulov, I. Rustamova, Ch. Niyatov, Q. Yoldoshev, Kh. Dostmukhammedov, Sh. Doniyorova, G. Sattorova, G. Imomova, Q. Yolchiyev, S. Komilova, Sh. Odilov, M. Kochkorova, P. Kenjayeva, S. Matyakubov, Sh. Sopiyeva, O. Abobakirova, M. Jorayeva, A. Kayumov, K. Hamroyev, B. Khasanova, K. Egamberdiyeva, B. Shukurova, and M. Ulkanboyeva[3].

In addition, a number of scholarly studies have been conducted on the works of Isajon Sultan, which serve as the object of this research. In particular, in the research works of N. Sultanova, N. Tosheva, D. Toshpulatova, H. Abdulhamidova, F. Kurbanova, G. Urazbayev, S. Habibullayeva, and S. Babayeva[4], the writer's

